

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 2. Jild 4.

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 2(4) - 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холиқулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сейтов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ***Файзуллаева Мавлюда Хамзаевна*ЎЗБЕК ВА ТОЖИК АНЪАНАВИЙ ТАОМЛАРИДА ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРНИНГ АКС
ЭТИШИ (СУРХОН ВОҲАСИ МИСОЛИДА) 10-15*Umarov Sardor Yakubovich*QAYTA BIRLASHGAN GERMANIYADA MEHNAT BOZORINI ISLOH QILISH, AHOLI BANDLIGI,
DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR 16-20**08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ***Shadiyeva Gulnora Mardiyevna*O'ZBEKISTONDA EKSPORTNING OSHISHINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIR ETISH
YO'LLARI..... 21-29*Халилдинов Азизбек Абдуқаххорович*КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ
БОШҚАРИШГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР 30-34*Мавлянов Мажид, Урдушев Хамракул*

КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ: ЧОРВАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ 35-45

*Асроров Азизбек Исомиддин угли*ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПРИРОДА РИСКОВ, ВОЗНИКАЮЩИХ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 46-52*Хайдарова Дурдона Шухратжон қизи, Ачилбойева Севинч О'ткир қизи*

МАНАЛЛИЙ BUDJET DAROMADLARI HISOBI TASHKIL ETISHNING NAZARIY JIHATLARI. 53-60

*Камалов Акмал Сайдакбарович*ХАЛҚАРО ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ ЭҲТИМОЛЛИГИНИНГ
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИГА ТАЪСИРИНИ БАҲОЛАШ
УСЛУБИЯТИ ИШЛАБ ЧИҚИШ 61-68*Namazov Gafur Shokulovich*

IQTISODIYOTDA GIBRID MODELLARNI QO'LLASH 69-75

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ*Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich*

YANGI O'ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TIZIMLI O'ZGARISHI 76-81

Kadirova Ziyoda Rahimdjanovna

ISLOM FALSAFASIDA ILM TUSHUNCHASINING MOHIYATI 82-86

Turdiyev Bexruz Sobirovich

JAMIYAT IDEOSFERASINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI 87-92

Alimatova Nargis Abduxalilovna

KONSTITUTSIYADA HALOL RAQOBAT KAFOLATI 93-98

Abdullayev Ibodulla Abdullayevich, Mustafoyeva Feruza Xurshid qizi

MA'NAVIYAT – YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUHIM POYDEVORIDIR..... 99-103

| | |
|--|---------|
| <i>Кувандиков Шокир Облокулович</i> МАҲМУДХҲҲЖА БЕҲБУДИЙ МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ ФАЛСАФИЙ МАНБАЛАРИ | 104-111 |
| <i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i> YOSHLAR MAFKURAVIY ONGI TRANSFORMATSIYALASHUVINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI: MUAMMO VA YECHIMLAR | 112-119 |
| <i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> BADIIY MUHITDA TANQIDIYLIK VA SATIRANING TABIIY KOMMUNIKATSIYASI | 120-125 |
| 10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ | |
| <i>Saitova Nilufar Djumaydillayevna</i> YOSH O'ZBEK SHOIRLARI: VOQELIKNI IDROK ETISH VA UNI BADIIY IFODALASH TENDENSIYALARI | 126-130 |
| <i>Nurmanov Furqat Hayitqulovich</i> O'G'UZ" ETNONIMI VA O'G'UZLAR | 131-137 |
| <i>Qudratova Sitora Olimovna</i> AQSH HIKOYACHILIGI TARIXI VA SPETSIFIKASINING BADIIY IFODASI HAMDA JANR IJDOKORLARI..... | 138-148 |
| <i>Fayziyeva Aziza Anvarovna, Safarova Nigora Axatovna</i> METAFORALARNING O'ZBEKCHA TARJIMASIGA KOGNITIV YONDASHUV | 149-153 |
| <i>Qodirova Madinabonu Murodjon qizi</i> LINGVISTIK TA'MINOT VOSITALARI: TUZILISHI VA TARKIBI | 154-159 |
| <i>Аллабердиева Регина, Мадалов Навруз</i> ТАКСОНОМИЯ ГЕНДЕРНО-МАРКИРОВАННЫХ ПАРЕМИЙ - РЕГУЛЯТИВОВ АНГЛИЙСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ | 160-165 |
| <i>Azimova Aziza Alisher qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KONCHILIK LEKSIK BIRLIKLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSUYATLARI | 166-172 |
| <i>Shoymardonov Ilhom Alixonovich</i> BAHOR, YOZ, KUZ MAVSUMLARI BILAN BOG'LIQ BOLALAR QO'SHIQLARI | 173-178 |
| <i>Raxmatova Dilafruz Nusratilloevna</i> SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI.... | 179-184 |
| <i>Mirzayev Jasur, Madalov Navruz</i> THE DIALOGIC NATURE OF PERSONIFICATION IN THE POETICS OF WILLIAM BLAKE..... | 185-190 |
| <i>Yuan Xiaowei</i> ON THE TITLE AND LEXICAL FEATURES OF THE WINTER OLYMPICS NEWS REPORT IN CHINA DAILY | 191-197 |
| 12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР | |
| <i>Ражабов Нариман Шарифбаевич</i> НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОБРОВОЛЬНОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СЕРТИФИКАЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН | 198-206 |
| <i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLIK | |

| | |
|---|---------|
| HUQUQI OBYEKTLARIDAN FOYDALANUVCHI SHAXSLAR O'RTASIDAGI SHARTNOMALAR TASNIFI..... | 207-212 |
| <i>Inoyatov Behruzjon Umidjon o'g'li</i> TOVAR BELGILARINING HUQUQIY JIHATDAN MUHOFAZA QILISHNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..... | 213-220 |
| <i>Raimova Shohsanam Fayratjonovna</i> РЕЦИДИВ ЖИНОЯТЛАР ВА УЛАРНИНГ ХУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ..... | 221-227 |
| <i>Mukimov Bobur</i> CURRENT ISSUES OF IMPROVING THE PROTECTION OF INTELLECTUAL PROPERTY AT THE INTERNATIONAL LEVEL..... | 228-234 |
| <i>Нодирахон Абдурахманова</i> ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИИ БЛОКЧЕЙН, СМАРТ-КОНТРАКТОВ И КРИПТОВАЛЮТ НА РАЗВИТИЕ ПРАВА..... | 235-239 |
| <i>Акмалхонов Боситхон Азизхон ўғли</i> ЗАЩИТА ПРАВА ЧАСТНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В ПРАКТИКЕ ЕВРОПЕЙСКОГО СУДА ПО ПРАВАМ ЧЕЛОВЕКА..... | 240-246 |
| <i>Turakulova Nazira</i> MUALLIFLIK HUQUQIDA MULKIY HUQUQLARNI JAMOVIIY BOSHQARISH..... | 247-260 |
| <i>Якубов Бекзод Эркинбаевич</i> КЕЧИКТИРИБ БЎЛМАЙДИГАН ҲОЛЛАРДА ТЕЗКОР – ҚИДИРУВ ТАДБИРЛАРИНИ ЎТКАЗИШ ТАРТИБИ ВА УНИНГ ХУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ..... | 261-265 |
| 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ | |
| <i>Мамажонов Хошимжон Абдумаликович</i> ФИЗИКА ФАНИНИ ИЈОДИЙ О'ЗЛАСHTIRISH YO'LLARI (АКАДЕМИК ЛИТСЕYLAR MISOLIDA)..... | 266-271 |
| <i>Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna</i> O'ZBEKISTON OLIY O'QUV YURLARIDA ISPAN TILI BO'YICHA IJTIMOIIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI O'QITISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISHTI..... | 272-281 |
| <i>Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich</i> TASVIRIIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYASI..... | 282-287 |
| <i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i> KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR XOTIRASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI..... | 288-291 |
| <i>Omonqulov Ulug'bek Maxsiddin o'g'li</i> IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI..... | 292-296 |
| <i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i> THE NEED TO USE AESTHETIC VIEWS OF EASTERN THINKERS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM..... | 297-304 |
| <i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i> TASVIRIIY SAN'ATNING O'QUVCHILAR IDROKI VA IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI..... | 305-310 |

Yusupova Feruza Hajiboyevna, Gaipova Nilufar Jasurbekovna

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING EKOLOGIK TA'LIM BERISHDA GRAFIK

ORGANAYZERLARNING ROLI 311-317

Karshiboyeva Dilafruz Boxodirovna

SOMONIYLAR DAVRI SAN'ATI VA UNING JAHON TARIXIDAGI ROLI..... 318-322

Хайдарова Дурдона Шухратжон қизи

Guliston davlat universiteti qoshidagi raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar instituti "Buxgalteriya hisobi va moliya" kafedrası, stajyor-o'qituvchisi
durdona19991995@gmail.com

Achilboyeva Sevinch O'tkir qizi

Guliston Davlat Universiteti talabasi
sevinchachilboyeva8@gmail.com

MAHALLIY BUDJET DAROMADLARI HISOBI TASHKIL ETISHNING NAZARIY JIHLTLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahalliy byudjet daromadlari hisobi va hisobotini tashkil etishning nazariy jihatlari bo'yicha nazariy-uslubiy masalalar bayon qilingan. Mahalliy byudjet daromadlarining manbalari va shakllanishi ko'rsatilgan bo'lib mahalliy byudjet daromadlari hisobi va hisobotini tashkil etishning nazariy jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: mahalliy byudjet, byudjet daromadlari, byudjet jarayoni, Byudjet mablag'larini oluvchilar, byudjet xarajatlari, moliya, davlat byudjeti, milliy daromad, pul fondlari, mahalliy soliqlar.

Haydarova Durdona Shukhratjon kizi

Trainee-teacher of the "Accounting and Finance" department of the Institute of Digital Economy and Innovations at Gulistan State University

Achilboyeva Sevinch O'tkir's daughter

Student of Gulistan State University

THEORETICAL ASPECTS OF ORGANIZING THE ACCOUNT OF LOCAL BUDGET REVENUES

Abstract: This article describes the theoretical and methodological issues related to the theoretical aspects of the organization of the calculation and reporting of local budget revenues. Sources and formation of local budget revenues are shown, and theoretical aspects of the organization of local budget revenues calculation and report are explained.

Key words local budget, budget revenues, budget process, recipients of budget funds, budget expenditures, finance, state budget, national income, money funds, local taxes.

Хайдарова Дурдона Шухратджон кизи

Стажер-преподаватель кафедры «Учет и финансы» Института цифровой экономики и инноваций Гулистанского государственного университета

Ачилбоева Севинч Уткир кизи

Студент Гулистанского государственного университета

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕТА ДОХОДОВ МЕСТНОГО БЮДЖЕТА

Аннотация: В данной статье рассмотрены теоретические и методические вопросы, связанные с теоретическими аспектами организации расчета и отчетности доходов местного бюджета. Показаны

источники и формирование доходов местного бюджета, разъяснены теоретические аспекты организации расчета и отчетности доходов местного бюджета.

Ключевые слова: местный бюджет, доходы бюджета, бюджетный процесс, получатели бюджетных средств, расходы бюджета, финансы, государственный бюджет, национальный доход, денежные средства, местные налоги.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I2Y2024N07>

Kirish. Hozirgi kunda mamlakatimizda davlat byudjet davlat pul mablag'larining markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjet tuzilmasi o'z ichiga O'zbekiston Respublikasining respublika budjet, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjet, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarni o'z ichiga oladi. Byudjet ijrosi jarayonida belgilangan tartibda budjet tasnifi bo'yicha budjet daromadlari shakllantiriladi va xarajatlar bo'yicha amalga oshiriladi. Budjet ijrosi jarayoni haqida axborotlar budjet hisobini tashkil etish va yuritish orqali shakllantiriladi[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida "Bugungi murakkab sharoitda yurtimizda boshlangan keng qamrovli islohotlar, yangi O'zbekistonni barpo etish sari tashlayotgan dadil qadamlarimizning bardavom bo'lishini ta'minlash eng asosiy vazifamiz bo'lishi shart. Global inqiroz sharoitida iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlash, joylardagi mavjud muammolarni manzilli hal etish, ko'makka muhtoj yurtdoshlarimizni qo'llab-quvvatlash, yoshlarimizning orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish – Prezidentdan boshlab, barcha darajadagi rahbarlarning bosh vazifasi bo'lmog'i darkor. Ana shu o'ta muhim vazifalarni amalga oshirishda asosiy talab – davlat va jamiyat institutlari o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash, bu jarayonda natijadorlik va sifatni oshirishdan iborat" — degan fikrni bildilar.

Davlat budjet daromadlarining asosiy manbai bo'lib mamlakat YaMM va milliy daromadi hisoblanadi, davlat markazlashgan pul fondiga mablag'larni jalb qilish vositasi — soliqlardir. Soliqlar majburiy pullik to'lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildirib, bu munosabatlar soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o'z mulkiga aylantiruvchi subyekt sifatida davlat o'rtasida sodir bo'ladi.

Mahalliy soliqlar mahalliy hukumatlar bajaradigan vazifalariga qarab belgilanib, ularga doimiy va to'liq birlashtirib beriladi. Mahalliy hukumatlar aholiga yaqin bo'lganligidan ular ijtimoiy masalalar, jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, shahar va qishloq obodonchiligi xarajatlarini moliyalashtirish kabi vazifalarni bajaradi. Lekin odatda bu soliqlar va yig'imlar budjet xarajatlarining 30-40 foizini qoplaydi. Mahalliy soliqlarning muhim xususiyati shundaki, ular faqat shu hududning byudjetga tushadi, ular hisobidan boshqa byudjetlarga ajratmalar berilmaydi. Mahalliy budjet daromadlarini ko'paytirish eng dolzarb masalalardan biridir. Faqat o'z daromad manbaiga to'liq ega bo'lgan mahalliy hukumatgina o'z faoliyatini to'liq amalga oshirishi mumkin.

Budjet daromadlarining shakllanishi mamlakat YaIMni taqsimlash va qayta taqsimlash umumiy jarayonining elementlaridan biri bo'lib, oraliq xarakterga ega. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan daromadlar va jamg'armalarning bir qismini budjetga o'tkazilishi natijasida vujudga keladi. Byudjetning qayta taqsimlash funksiyasi namoyon bo'lish shakli davlat budjetga tushuvchi turli soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va ajratmalarning harakatida

namoyon bo'лади. Mahalliy byudjetlarning daromadlari mahalliy soliqlar va yig'implar hamda tartib soluvchi daromadlardan ajratmalar va boshqalardan tashkil topadi.

Adabiyotlar tahlili. Moliya, davlat byudjeti, mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlari hamda davlat moliyaviy nazoratini samarali tashkil etishga oid muammolarni tadqiq etish bo'yicha o'zining alohida hissalarini qo'shgan xorijiy olim va iqtisodchilari Rossiyalik professor olimlar Y.V.Sokolov, S.I.Kolesnikov, T.S.Maslova, S.G.Xabayevlarning maqola va tezislaridan maqolani tayyorlashda foydalanildi. Shu bilan bir qatorda respublikamiz iqtisodchi-olimlari G.A.Kasimova, S.U.Mexmonov, A.A.Ostonokulov, A.J.Tuychiev, D.A.Tashmuxamedova, K.SH.Ibragimov, A.S.Tursunov, B.I.Nurmuxamedova va boshqalarning ilmiy ishlari, o'quv qo'llanmalari, darsliklari, ilmiy maqolalarini nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilgan holda maqola tayyorlashda foydalanildi.


Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishi olib borish jarayonida mantiqiy fikrlash, prognozlash, sintez, matematik, induksiya, deduksiya, tizimli yondashuv, tarkibiy va qiyosiy tahlil, iqtisodiy taqqoslash, ilmiy umumlashtirish, statistik hisoblash va ilmiy prognozashtirish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizning turli hududlari bo'ylab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi hamda iqtisodiyotni yangilash sharoitida mahalliy byudjetlarning faoliyatini samarali tashkil etish va mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini yanada oshirish davlat moliyasini isloh qilishning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Hozirgi kunda mahalliy byudjetlar boshqaruv tizimini isloh qilish va optimallashtirish masalalari byudjet qonunchiligini takomillashtirish oldida turgan muhim vazifadir.

Mahalliy byudjetlar umumdavlat miqyosidagi iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, davlat mablag'larini taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular mahalliy hokimiyatlarning faoliyat ko'rsatishlarida asosiy moliyaviy manba bo'lib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini joylarda amalga oshirishda asosiy rol o'ynaydi.

Mahalliy byudjet — davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismidir. Mahalliy byudjetlarda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Mahalliy byudjetlarning daromadlari mahalliy soliqlar va yig'implar hamda to'lovlardan tashkil topadi. Mahalliy byudjetlarning mablag'lari hududiy rivojlanishning moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar har bir mamlakat davlat byudjetining ajralmas qismidir.

O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti davlatning davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun mo'ljallangan markazlashtirilgan pul jamg'armasi hisoblanadi. Davlat byudjeti O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan iborat.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlar tuzilishi

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksiga muvofiq mahalliy byudjetlar tarkibiga quyidagi byudjetlarni o'z ichiga oladi:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti tuzilmasiga Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi.
- viloyatlar mahalliy byudjetlari tuzilmasiga viloyat byudjeti, tegishli viloyatlar tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi.
- Toshkent shahar mahalliy byudjeti tuzilmasiga shahar byudjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarning byudjetlari kiradi.

O'zbekiston Respublikasi byudjet qonunchiligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslangan va O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, "Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjet huquqlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tegishli moliyaviy yil uchun qabul qilinadigan "Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonuni va byudjet masalalari bo'yicha boshqa qonuniy va normativ hujjatlardan tashkil topgan.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi 2013-yil 26-dekabrda qabul qilingan bo'lib, 9 ta bo'lim, 28 ta bob, 192 moddadan iborat[2]. Ushbu Kodeks:

- O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi tuzilishi va uni boshqarish asoslarini;
- O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetini tuzish prinsiplari va uning tuzilmasini;
- davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish tartibini;
- davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarini shakllantirish va ularning xarajatlarini amalga oshirish prinsiplarini;
- davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni;
- davlat byudjeti mablag'lari bilan operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida hisobga olish, hisobot va nazorat qilish tartibini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining II bo'lim "Byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari"ning 9-bob "Davlat byudjeti daromadlari"ning 52-moddasida Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlarini shakllantirilishi keltirilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari[3]:

1) belgilangan normativlarga muvofiq:

- foyda solig'i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- aksiz solig'i;
- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (bundan qurilish materiallari bo'yicha er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq mustasno).

2) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

3) mol-mulk solig'i;

4) yer solig'i;

5) qurilish materiallari bo'yicha er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

6) aylanmadan olinadigan soliq;

7) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

8) avtotransport vositalarini sotib olganlik yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im;

9) boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlarga qonunchilikka muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga yo'naltiriladigan davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, belgilangan normativlar bo'yicha davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan olingan daromadlar, davlat bojlari, yig'imlar, tovon pullari va jarima sanksiyalari, egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo'yicha davlat ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni, huquq bo'yicha davlat daromadiga o'tkazilishi lozim bo'lgan xazinalarni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo'yicha dividendlar (daromadlar) va qonunchilikka muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratiladigan byudjetlararo transfertlar Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining daromatlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga tushadigan ayrim soliqlar va boshqa daromadlar Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga, Toshkent shahrining shahar byudjetiga qonunchilikda belgilangan miqdorlarda va tartibda taqsimlanishi mumkin.

Soliqlar va boshqa daromadlar belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari, Toshkent shahrining shahar byudjeti hamda tumanlar va shaharlar byudjetlari o'rtasida qayta taqsimlanishi mumkin.

Byudjetni ijro etish – ko'plab idoralar, vakolatli organlar qatnashadigan murakkab jarayon. Byudjetni ijro etish ikki bosqichdan iborat : daromatlarni yig'ish va xarajatlarni taqsimlashdan iborat.



2-rasm. Davlat byudjeti xarajatlarini taqsimlanishi

Byudjet mablag'larini taqsimlovchilar davlat byudjeti mablag'larni byudjet tasnifi orqali taqsimlaydilar. Byudjet tasnifi mamlakatdagi tegishli vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadi.


Muhokama. Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetida muhim tarkibiy qismni tashkil etadi va mahalliy hukumat organlarining faoliyat ko'rsatishlarida moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar ishlab chiqarishning yakuniy natijalarini aholiga etkazishning asosiy yo'nalishini belgilab beruvchi vositadir. Mahalliy byudjetlar orqali ijtimoiy iste'mol jamg'armalari aholining ayrim guruhlari o'rtasida taqsimlanadi. Mahalliy byudjetlar bu yangi byudjet tuzilishi sharoitlarida byudjetlararo munosabatlarni ta'minlovchi o'ziga xos iqtisodiy kategoriya bo'lib, ma'lum hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tashkil etiladigan pul mablag'lari jamg'armalarining shakllantirilishi, taqsimlanishi, ishlatilishi bilan bog'liq jamiytdagi iqtisodiy munosabatlarning muvofiqligini ham bildiradi.

2022-2023 yil Davlat byudjeti daromadlari prognozini tahlil qilish davomida shuni ko'rishimiz mumkinki soliq stavkalarining kamaytirilishiga qaramasdan 2023 yil byudjet daromadi 2022 yilga qaraganda byudjet daromadi ko'p sababi soliq stavkalari tushirilishi soliq to'lovchilarini hajmini ham, oshishiga sabab bo'ldi.

3-rasm 2022-yil Davlat byudjeti daromadlari prognozining tarkibi, mlrd so'm[4].



4-rasm 2023-yil Davlat byudjeti daromadlari prognozining tarkibi, mlrd so'm[5].



Byudjet ko'rsatkichlarining ixtisoslashuvi byudjet daromadlarining manbalari va byudjet xarajatlarini maqsadlar bo'yicha belgilash zarurligini anglatadi. Ushbu tamoyil byudjet jarayonining barcha bosqichlarida amalga oshiriladi va muhim ahamiyatga molik, chunki unga muvofiq tegishli organlarning faoliyat doirasi belgilanadi. Ushbu tamoyilni amalga oshirish uchun byudjet tasnifi — barcha darajadagi byudjetlar daromadlari va xarajatlarning guruhlari, shuningdek, bu byudjetlarning kamomadini moliyalashtirish manbalari, tasniflash obyektlariga kodlashni belgilash bilan tavsiflanadi.

Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda byudjet jarayonini isloh bo'yicha qator izlanishlar va amaliy ishlar olib borilmoqda, bunda byudjet jarayonini isloh qilishning maxsus konseptsiyasi nazarda tutiladi va o'rnatiladi. Islohot "byudjet resurslarini (xarajatlarini) boshqarish" dan "natijalarni boshqarish" ga o'tishdan iborat.

Byudjet jarayoni samarali tashkil etishda byudjet boshqaruvchilarining aniq o'rta muddatli mezonlari doirasida javobgarligini oshirish va ishtirokchilarning mustaqilligini kengaytirish rejalashtirilmogda. "Natijalarni boshqarish" tushunchasi doirasida byudjet davlat siyosatining maqsadlari va rejalashtirilgan natijalari asosida shakllantiriladi. Byudjetdan ajratiladigan mablag'lar funksiyalarga (xizmatlarga, faoliyatga) nisbatan ziddiyatli bo'ladi. Shu bilan birga, ularni rejalashtirishda asosiy e'tibor byudjet dasturlari doirasida yakuniy natijalarni oqlashga qaratiladi. Shuningdek, ko'p yillik byudjetni rejalashtirishga o'tishlarni ajratish hajmini va tarkibini o'zgartirish va byudjet ma'murlari tomonidan boshqariladigan resurslar miqdorining prognozini oshirish bo'yicha aniq qoidalarni belgilab beradi.

Umuman olganda, qonun chiqaruvchi organ rejaga muvofiq, byudjet jarayonini isloh qilish quyidagi sohalarda amalga oshirilishi kerak:

- mamlakatning byudjet tasnifini va byudjetni hisobga olishni isloh qilish;
- byudjetlarining mavjud va qabul qilingan majburiyatlarini taqsimlash;
- o'rta muddatli byudjetni rejalashtirishni takomillashtirish;
- byudjet rejalashtirilishining dasturiy-maqsadli uslublarini kengaytirish;
- byudjetni tuzish va ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish.

Xulosa. Byudjet jarayoni — Davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayondir. Boshqacha qilib aytganda, byudjet jarayoni byudjet faoliyatining quyidagi to'rt bosqichini o'z ichiga oladi: byudjet loyihasini tuzish (ishlab chiqish, yaratish); byudjetni ko'rib chiqish (muhokama qilish)

va tasdiqlash; byudjetni ijro etish; byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida byudjet jarayonini tashkil etishda davlat organlari faoliyatini takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqish, me'yoriy-huquqiy qonun hujjatlarini davr talabiga moslashtirib, rivojlantirib borish byudjet jarayonining samarali ijrosini ta'minlashga o'z hissasini qo'shadi.

Biz ushbu bobda O'zbekiston Respublikasi byudjet jarayoni qonun hujjatlarida belgilangan vakolatli davlat organlarining, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, maxsus organlar, jumladan Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bojxona Qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va byudjet jarayoniga tegishli vazifalarni to'liq bajarishlari orqali yuzaga kelishini o'rgandik. Samarali byudjet jarayonini tashkil etish uchun byudjet tizimida vujudga kelayotgan muammolar va ularning yechimlarini hisobga olgan holda byudjet qonunchiligini takomillashtirib borish, byudjet jarayonida ishtirok etuvchi barcha vakolatli davlat organlari vazifalarini zamon talablariga moslashtirib borish, butun mamlakat miqyosida byudjet jarayonini qamrab oluvchi mahalliy hokimiyat organlari faoliyatida byudjet jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi muammoli masalalarni bartaraf etish yo'llarini o'rganib chiqish kerak degan xulosaga keldik.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" №19 (7521), 29.12.2020-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining «Byudjet kodeksi» ni tasdiqlash to'g'risidagi Qonuni 2013-yil 26-dekabrda O'RQ-360-sonli. 34-modda.
3. O'zbekiston Respublikasining «Byudjet kodeksi» ni tasdiqlash to'g'risidagi Qonuni 2013-yil 26-dekabrda O'RQ-360-sonli. 52-modda.
4. Fuqorolar uchun byudjet loyihasi-2022 www.norma.uz
5. Fuqorolar uchun byudjet loyihasi-2023 www.openbudget.uz
6. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. – Toshkent. // Xalq so'zi. 2020 yil. 24 yanvar.
7. Kasimova G.A., Xaydarov A. G'aznachilikning dasturiy komplekslari. Darslik. T.: 2021. «Nihol print OK. 376 b.
8. Kasimova G.A., A.Shoraxmatov O'zbekiston Respublikasida mahalliy byudjet g'azna ijrosining nazariy-uslubiy asoslari. Iqtisodiyot va ta'lim – Toshkent. 2021.- № 5.-B.228-234.
9. Tuychiev A.J., Ostonokulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. Byudjet tashkilotlarida byudjet hisobi. Darslik. – T.: "IQTISOD MOLIIYa" 2019. 329 b.
10. www.norma.uz
11. www.mf.uz
12. www.openbudget.uz

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 2 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).